

YUSUF VA ZULAYHO OBRAZLARINING QIYOSIY TALQINLARI

Mohinur Hamdamova

FDU filologiya fakulteti o'zbek tili 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Yusuf va Zulayho qissasi Sharq adabiyotida eng ko'p qayta talqin qilingan mavzulardan biridir. Ushbu qissa Qur'oni karimdagi «Yusuf» surasiga asoslangan bo'lib, o'rta asrlardan boshlab turli adiblar tomonidan badiiy, tasavvufiy va axloqiy ma'nolar bilan boyitib talqin qilingan. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida Yusuf va Zulayho obrazlari umumiy manbaga tayanadi, biroq ularning talqinida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu maqolada uch adibning talqinlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yusuf va Zulayho, Sharq yozma adabiyoti, Tasavvufiy talqin, badiiy obraz, Qur'oni karim, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Qissasi Rabg'uziy

YUSUF VA ZULAYHO — Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishq qissasi, doston. Asl manbayi — ilohiy muqaddas kitoblar: Tavrot, Injil va Qur'oni karim. Qur'ondagi talqini birmuncha ixcham va badiiy shakllangan. Tavrotdagisi folklorga yaqin va qadimiy Misr afsonalariga borib taqalishi taxmin qilinadi. Sharqda keng tarqalgan qissaning bu varianti Qur'oni karimning "Yusuf" surasi asosida shakllangan bo'lib, jamiki qissa va dostonlarining ilhom manbai ushbu suradir. Ushbu qissa Qur'onda "ahsan ulqisas" ("qissalarning eng go'zali") deya ta'riflanadi.

Qur'oni Karimdagi qissalardan asosiy maqsad ibrat olish ekanini bayon qilib Alloh taolo Yusuf surasida quyidagilarni aytadi:

“Batahqiq, ularning qissalarida aql egalari uchun ibrat bor edi. Bu (Qur'on) to'qima gap emas, lekin o'zidan oldin kelganni tasdiqlash va har bir narsani batafsil qilish, hidoyat hamda iymon keltirganlar uchun rahmatdir.”¹

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Anbiyolar qissasi" 33-bet

Bu qissa Qur'oni Karimdagi eng go'zal va yoqimli qissalardan hisoblanadi. Yusuf surasi bitta qissani avvalidan oxirigacha, boshqa narsalarni aralashtirmay hikoya qilgan yagona suradir.

“Go'zal qissa” deb ta'riflanuvchi ushbu surada asosan Ya'qub alayhissalomning o'g'li Yusuf alayhissalomning boshidan kechirgan voqealar aks ettirilgan. Surada otalik va birodarlik mehri, ishq-muhabbat, ayollar makri, tush ta'biri, saxiylik va kechirimli bo'lish kabi insoniy xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Bu suradan ilhomlangan shoir va yozuvchilar qadimdan “Yusuf va Zulayho qissasi” ruknida turli dostonlar ijod etganlar. Sharq xalqlari orasida g'oyat keng tarqalgan va juda mashhur bo'lgan Yusuf qissasi turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida ham o'zining betakror va rang-barang talqinini topgan bo'lib, bu epik syujetga murojaat qilish an'anasi XIII asrdan boshlangan.

O'zbek adabiyotida Yusuf qissasi asosida yaratilgan ilk asar Nosiruddin Burhouniddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asariga kiritilgan. Bu asarda Yusuf qissasining Qur'oni karimdagi talqinlari, asosan, saqlangan holda, muallif o'z asarining turli diniy ma'rifiy adabiyotlar hamda mahalliy aholi folklorida ommalashgan afsona va rivoyatlar bilan boyitib, an'anaviy epik syujetni takomillashtirishga muvaffaq bo'lgan. Asar 72 qissadan iborat bo'lib, Yusuf qissasi eng katta qissalaridan biri hisoblanadi. Qissada Yusuf alayhissalomning akalari tomonidan quduqqa tashlanishi, Misrga qul bo'lib borishi, u yerda Misr azizining ayoli Zulayhoning Yusufga oshiq bo'lishi, Misrdagi sarguzashtlari yuksak mahorat bilan aks ettirilgan. Misol uchun, ko'plab “Yusuf va Zulayho” qissalarida Zulayho Yusufga oshiq bo'lganini ta'na va malomat qilgan ayollarni to'plab, ularning qo'llariga sabzi yoki boshqa mahsulotlar berganligi va Yusufni ko'rgan ayollar, uning husniga mahliyo bo'lib, qo'larini ham kesib yuborganlari haqidagi voqealar berilgan. “Qissasi Rabg'uziy”da esa mana shu yerda sabzi emas, balki go'sht deyiladi, menimcha ushbu dadil, qolgan qissalarga qaraganda ancha ishonarliroq hisoblanadi. Bundan tashqari, asardagi qolgan voqealar ham ishonchli dadillar bilan yoritilgan.

Asarda Yusufning go'zalligi uning ma'naviy kamoloti bilan uyg'un: go'zallik – Allohning marhamati, uning payg'ambarligi belgisi sifatida ko'rinadi. Zulayho obrazi murakkab psixologik qiyofaga ega emas — u ko'proq sinov vositasi sifatida ko'rinadi.

Uning keyinchalik tavbasi va Yusufga turmushga chiqishi esa ilohiy adolatning tantanasi sifatida beriladi. Asarning umumiy ruhiyatida didaktizm kuchli: har bir voqea orqali ibrat, tarbiyaviy ma'no chiqariladi. Qissa sodda xalqona tilda, diniy ta'limotlar bilan uyg'un yozilgan.

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashab ijod qilgan. Alisher Navoiyning do'sti, ustози va ma'naviy otasi. Xamsa yozgan uchinchi xamsanavis. Ijodkor beshligidagi uchinchi dostonni "Yusuf va Zulayho"ga o'zidan oldingi xamsanavislar qo'l urmagan qissaga bag'ishlaydi. Qissaga Jomiydan oldin Rabg'uziy va Durbeklar murojaat qilishgan. Jomiy o'z dostonini Ilohiy kitobda qanday nozil bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday ketma-ketlik asosida syujet ipiga chizib chiqadi. Asar qahramoni Yusuf poklik va ma'sumiyat ramzidir. Shoir doston so'nggida Yusuf timsolidan murod - Mir Alisher Navoiy ekanligini ta'miya (muammo san'ati) usulida qayd qilib o'tadi. Doston Yaratganga iltijo bilan boshlanadi:

Ilohiy, g'unchayi umiddan och yuz,

Abadiy bog'idin bir gulni ko'rguz.

Ochib ul g'unchani ko'nglimni shod et,

U gulning atri birla hushdumog' et. [A. Jomiy ; 3b]

Muallif Yaratgandan o'ziga ilohiy ilhom, ilm so'rarkan, uni gulg'unchaga o'xshatadi. Dostonning ilk misralaridanoq tashbeh san'atining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin.

Nodonlar bazmida o'zni unutgay,

U maydan ilgida kim jom tutgay.

Kel, ey Jomiy, xijolat bo'lma zinhor,

Olib kel, sofmi quyqa, har neki bor. [A. Jomiy ; 3b]

Jomiy ushbu dostonida ishqning barcha ko'rinishlari haqida kuylamoqchiligi haqida yozadi. Bilamizki, tasavvufda ishq 2 turga bo'linadi:

1. Xoslar ishq (faqatgina tanlagan insonlargagina nasib qiluvchi ilohiy ishq)

2. Avom ishq (insonni insonga bo'lgan muhabbati)

Jomiy asarida Yusuf - borliqning eng go'zal ramzi, ilohiy nurdan yaratilgan “jamol timsoli”dir. Uning siymosi tasavvufiy talqinda beriladi: Yusuf – ma'rifatga eltuvchi ilohiy go'zallik, Zulayho esa ruhning ana shu go'zallikka oshuftaligi.

Jomiy Yusufni sabr, adolat, halollik va komillik timsoli sifatida chuqur falsafiy yondashuvda talqin qiladi. Zulayho oddiy ayol emas, balki muhabbatning oliy darajasi – ilohiy ishq ramzidir. U Yusufga bo'lgan muhabbati orqali nafsdan fano bosqichiga o'tadi, ya'ni tasavvufiy “ma'naviy poklanish” jarayoni.

Dostonning eng asosiy g'oyasi shuki: Zulayho sevgisi bilan haqiqatga yetadi, ularning birlashuvi esa ruhning ma'rifat bilan birlashishi tarzida talqin etiladi.

Jomiy “Yusuf va Zulayho”sining syujeti Qur'oni Karimdagi “Yusuf”surasi (12-sura, 111oyatdan iborat) dagi syujetga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Dostonning yana bir o'ziga xos jihati, unda ishqning barcha ko'rinishlari o'z aksini topgan. To'qima obraz bo'lishiga qaramay Zulayho ta'rifi, tush ko'rishi, hissiy kechinmalari katta o'rinni egallagan. Shunday qilib, Jomiy “Yusuf va Zulayho” she'riy dostoni yaralishi uchun Kalomulloh asos bo'lgan bo'lsa, asrlar osha yashab kelayotgan bu durdona ko'plab kitobxon va ilm ahli uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Hazrat Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridan biri — “Tarixi anbiyo va hukamo” tarix davomida yashab o'tgan payg'ambarlar va hukmdorlar haqida ma'lumot beradi. Shoir Yusuf (a.s) tarixiga juda katta o'rin ajratilmagan.

Yusuf (a.s.) 20-payg'ambar sifatida zikr qilinadi. Unda Yusuf voqeasi “eng mashhur qissa” ekani, uning “ajoyibligi va latofati” sababli oldingi shoirlar bu mavzuni she'riy va nasriy shaklda yetuk qilib tasvirlagani aytiladi. Navoiyning fikricha, avvalo Firdavsiy, keyin Jomiy Yusuf (a.s.)ning husnini mahorat bilan yaratgan, ularning asarlari haqida ortiqcha gapirishga hojat yo'q. Shuningdek, Xoja Mas'ud Iroqiy ham bu mavzuda asar yozgani, boshqa shoirlar ham unga murojaat qilgani aytiladi. Keyin shoir: “Agar umr

kifoya qilsa, men ham bu dostonni turkiyda yozib tugatishni istayman”, — deb niyat bildiradi.

Navoiy ijodiy qarashida “Yusuf va Zulayho” mavzusi Yusuf (a.s.) haqidagi rivoyatlar asosiga qurilgan. U Yusufni “insoniyatning eng go‘zal vakili” deb ta’riflaydi. Bir rivoyatda Yusuf oynaga qarab: “Agar men qul bo‘lsam, kim menga baho bera oladi?” — deb faxrlangan. Uning go‘zalligi shunchalik yuksakki, go‘zallikning yuzta qismidan to‘qson to‘qqizi unga berilgani aytiladi. Yana bir manbada aytilishicha, odamlar uning jamolini ko‘rib hushidan ketmasligi uchun bir necha qatlam pardalar ortiga yuzini yashirib yurgan, Misr xalqi ochlikka duchor bo‘lganida esa bir pardani ko‘targanda odamlar yetti yil mobaynida uning husniga mahliyo bo‘lib yashagan.

Yusufning o‘zini oynada ko‘rib faxrlanishi xalq og‘zaki ijodida uchraydigan motiv bo‘lib, oynaga qarash go‘zallikning timsoli hisoblanadi Shoir bu holatni insonda kibr va o‘ziga berilganlikning yomon oqibatlari orqali ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, kibrilanishning jazosi muqarrar bo‘ladi. Yusuf qul sifatida sotiladi

Navoiy “Yusuf va Zulayho” dostonlarining ko‘plab variantlarini bilgan. Dostonlarda boshida berilgan Yusufning tushining oxirida amalga oshishi an‘analari Navoiyning asarida ham davom etadi. Ya‘qubdan keyin malik ham vafot etadi, Qobus ismli kofir taxtga chiqadi, Yusuf uni islomga chaqiradi va oxirgi manzilini Nil bo‘yida belgilab, vafot etadi. Isroil xalqi Ya‘qub avlodlaridir, ularning o‘n bir o‘g‘li bo‘lgani bunga dalildir.

Yusuf haqidagi rivoyatlar Navoiyning davridan ancha avval mavjud bo‘lgan va shoir ulardan Qur‘on, “Qisas ul-anbiyo”, “Yusuf va Zulayho” dostonlari, xalq og‘zaki ijodi va afsonalar asosida foydalangan. Navoiy bu mavzuni boshqa dostonlarga qaraganda ixcham tasvirlagan bo‘lsa-da, uning syujetga munosabati va kelajakda yozmoqchi bo‘lgan dostoni qanday bo‘lishi haqida yetarli tasavvur hosil qilish mumkin.

XULOSA:

Yusuf va Zulayho qissasi Sharq adabiyotida uch xil uslubda — diniy-didaktik, tasavvufiy-badiiy va tarixiy-axloqiy shaklda talqin etilgan. Rabg‘uziy sodda va rivoyaviy yo‘lni tanlagan bo‘lsa, Jomiy ushbu qissani yuksak badiiy va tasavvufiy nuqtai nazardan talqin qiladi. Navoiy esa uni tarixiy-biografik uslubda bayon etib, asosiy e‘tiborni ibratga qaratadi. Uchalasida ham Yusufning komilligi, Zulayhoning tavbasi, Allohning adolati

markaziy g'oya sifatida namoyon bo'ladi va har bir asar uchun albatta, Qur'oni karim asos qilib olindi.

Shunday qilib, "Yusuf va Zulayho" boshqa xalqlar adabiyotida katta o'rin olgani kabi, o'zbek adabiyoti tarixida ham salmoqli o'rin tutdi, uning taraqqiyotiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Rabg'uziy, Nosiruddin Burhonuddin.** *Qissasi Rabg'uziy.* – Toshkent: Fan, 1990.
2. **Jomiy, Abdurahmon.** *Yusuf va Zulayho.* – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
3. **Alisher Navoiy.** *Tarixi anbiyo va hukamo.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1997.
4. **Yusupov, A.** *Sharq dostonchiligida Yusuf va Zulayho syujeti.* – Toshkent: Fan, 2010.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Anbiyolar qissasi" – Toshkent: Hilol nashr, 2008
6. wikipedia.uz